



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SAMARQAND VILOYATI KATTAQO‘RG‘ON SHAHAR HOKIMINING QARORI

140800, Kattaqo‘rg‘on sh., Amir Temur ko‘chasi, 4-uy. Tel.: (66) 4561001, 4561589, e-mail: kattaqorgon.sh@exat.uz, info@kattakurgon.uz

2022 - yil 31 - oktabr

524-7-106-Q/22

Kattaqo‘rg‘on shahar hokimligi

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunning 39-moddasi (*Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 20.10.2020-y., 03/20/642/1396-son*) “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi Qonunning 14-moddasi (*Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 15.10.2020-y., 03/20/641/1389-son*) hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrda “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi 965-sonli qarori (*Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 11.12.2017-y., 09/17/965/0393-son*) ijrosini ta’minlash hamda shahar hududida joylashgan korxonalarda ish o‘rinlarini eng kam miqdorini belgilash va zaxiraga qo‘yish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6,25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN

1. Shaharda ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish joylarining eng kam miqdorini belgilash bo‘yicha komissiya tarkibi 1-ilovaga muvofiq, "Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini band

qilib qo'yish tartibi to'g'risida"gi Nizomga asosan ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun korxonalar, tashkilot va muassasalarda 2023-yilga belgilangan kvota ish o'rinlari ro'yxati 2-ilovaga asosan tasdiqlansin.

2. O'zbekiston Respublikasining "Aholini bandligi to'g'risida"gi Qonunning 39-moddasiga asosan "Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o'rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo'yish tartibi to'g'risida" qaroriga asosan shahardagi korxonalar, tashkilotlar va muassasalar uchun xodimlarning ro'yxat bo'yicha o'rtacha sonidan 89 kishini tashkil etadi, shu jumladan:

- Nogironlar uchun 7 nafar (7.8 foiz)(Nogironlar uchun zaxiralangan ish o'rinlari)

- o'n to'rt yoshga to'lmagan bolalari, nogironligi bo'lgan bolalari bor yolg'iz otaga yoki onaga, shuningdek ko'p bolali oilalarning ota-onalariga uchun 27 nafar (30.3 foiz)

- umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga ega bo'lgan yoshlar, «Mehribonlik» uylarining bitiruvchilari, shuningdek oliy ta'lim muassasalarining davlat grantlari bo'yicha ta'lim olgan bitiruvchilari uchun 43 nafar (48.3 foiz)

- O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining, Ichki ishlar vazirligining, Favqulodda vaziyatlar vazirligining, Milliy gvardiyasining, Davlat xavfsizlik xizmatining qo'shinlaridagi muddatli harbiy xizmatdan bo'shatilgan shaxslar uchun 2 nafar (2.2 foiz)

- pensiyaoldi yoshidagi shaxslar uchun 5 nafar (5.6 foiz)

-jazoni o'tash muassasalaridan ozod qilingan, yoki sud qaroriga ko'ra tibbiy yo'sundagi majburiy choralariga tortilgan shaxslar uchun 2 nafar (2.2 foiz)

-Qonunchilikka muvofiq boshqa shaxslar uchun 3 nafar (3.3 foiz) miqdorida ish o'rinlari zahirasi belgilansin.

3. Korxonalar, tashkilotlar va muassasalar rahbarlariga ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda

raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ish bilan ta'minlash uchun 2022-yil yakunlashidan 10 kun oldin kvota ish joylari umumiy miqdorining kamida 25 foizi uchun, 2023-yilning 10-aprelidan kechikmay ish joylarining qolgan qismi 75 foizini barpo etish (ajratish yoki band qilib qo'yish) to'g'risidagi, ya'ni har bir kvota toifasi bo'yicha ish o'rinlari band qilib qo'yiladigan kasblar va lavozimlar, mutaxassisliklar kesimidagi ma'lumotlarni va qaror bo'yicha chiqarilgan buyruq nusxalarini shahar Aholi bandligiga ko'maklashish markaziga taqdim etish vazifalari yuklatilsin.

4. Korxonalar, tashkilot va muassasalar rahbarlari ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar uchun ish joylarining ko'rsatib o'tilgan miqdorini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrda 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o'rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo'yish tartibi to'g'risida"gi Nizomga muvofiq belgilangan muddatlarda va tartibda yaratilishini (ajratilishini yoki band etib qo'yilishini) hamda ish joylari sanitariya gigiyena normalariga va xodim o'z majburiyatlarini bema'lol bajarishini ta'minlaydigan mehnat sharoitlariga muvofiq bo'lishini ta'minlasinlar.

5. Shahar hokimining mazkur qarori bajarilmagan taqdirda tashkilotning mansabdor shaxsiga, shuningdek, ularni ishga qabul qilish asossiz ravishda rad etilganligi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ma'muriy javobgarlik belgilanadi.

6. O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirining "O'zbekiston Respublikasi Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish tartibi to'g'risida Nizomni tasdiqlash haqida"gi (AV ro'yxat raqami №-3163-son, 31.05.2019-yil) buyrug'iga asosan "Ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlamlariga mansub shaxslarni kvotalangan eng kam sondan ortiq miqdorda ishga qabul qilgan tashkilotlarga – har bir xodim uchun 12 oy davomida har oyda eng kam oylik ish haqining 2 baravari miqdorida subsidiyalar ajratilishi inobatga olinsin.

7. Shahar Aholi bandligiga ko'maklashish markazi (R.Murodqosimov) bir hafta muddatda mazkur qarorni tegishli korxonalar va tashkilot rahbarlariga yetkazsin hamda uning bajarilishi ustidan qat'iy nazoratni ta'minlasin.

8. Shahar hokimining 2021 yil 29-oktyabrdagi “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini 2022-yil uchun band qilib qo‘yish to‘g‘risida”gi 80-7-106-Q/21-sonli qarori 2022-yilning 31-dekabridan o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

9. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish shahar hokimining birinchi o‘rinbosari M.Toshpo‘latov zimmasiga yuklansin.

Mazkur qaror rasmiy e‘lon qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

Shahar hokimi



G. Alimova

Kattaqo'rg'on shahar hokimining
2022 yil 31 oktabrdagi
524-7-106-Q/22-son qaroriga
1-ilova

**2023-yilda Kattaqo'rg'on shahrida aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun band qilib
qo'yilgan ish o'rinlari to'g'risida
MA'LUMOT**

№	Ish o'rinlarini zahiralash belgilangan korxon va tashkilotlar nomi	Korxon va tashkilotlar STIR (STIR aniq bo'lishi shart)	Joylashgan manzili	Telefon raqamlari	Shtat jadvali bo'yicha hodimlar soni	Jami zahiralanishi belgilangan ish o'rinlari soni	Shundan:								
							O'n to'rt yoshga to'lmagan bolalari, nogironligi bo'lgan bolalari bor yolg'iz otaga yoki onaga, shuningdek ko'p bolali oilalarning ota-onalariga	Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejarini hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga ega bo'lgan yoshlar; "Mehribonlik" uylarining bitiruvchilari, shuningdek oliy ta'lim muassasalarining davlat grantlari bo'yicha ta'lim olgan bitiruvchilari	O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining, Ichki ishlar vazirligining, Favqulodda vaziyatlar vazirligining, Milliy gvardiyasining, Davlat xavfsizlik xizmatining qo'shinlaridagi muddatli harbiy xizmatdan bo'shatilgan shaxslar	Nogironligi bo'lgan shaxslar	Pensiyaoldi yoshidagi shaxslar	Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sud qaroriga ko'ra o'ziga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llanilgan shaxslar	Odam savdosidan jabrlanganlar	Qonunchilikka muvofiq boshqa shaxslar	
1	Kattaqo'rg'on shahar madaniyat bo'limi-madaniyat va aholi dam olish markazi	200722267	Nuroniyy ko'chasi, 23-uy	664552188	42	1		1							
2	Kattaqo'rg'on shahar kommunal foydalanish boshqarmasi	200721220	Umar Xayyom ko'chasi, 1-uy	664554108	163	4	1	1			1		1		
3	Kattaqo'rg'on shahar 6-umumiy o'rta ta'lim maktabi	203443802	O'zbekiston ko'chasi, 178-uy	664552668, 946416499	89	2	1	1							
4	Kattaqo'rg'on shahar 9-umumiy o'rta ta'lim maktabi	203483452	I.Jo'raev ko'chasi, 34-uy	664552728, 946240708	75	2		1			1				
5	Kattaqo'rg'on shahar 13-umumiy o'rta ta'lim maktabi	203488944	Mustaqillik ko'chasi, 1-uy	664553163, 945340800	79	2		1			1				

6	Kattaqo'rg'on shahar 15-umumiy o'rta ta'lim maktabi	300471063	Y.Oxunboboev ko'chasi, 1-uy	932381889	87	2	1	1						
7	Kattaqo'rg'on shahar 3-umumiy o'rta ta'lim maktabi	300470943	A.Navoiy ko'chasi, 195-uy	664552532, 933542774	97	3	1	2						
8	Kattaqo'rg'on shahar 4-umumiy o'rta ta'lim maktabi	300470950	B.Mashrab ko'chasi, 82-uy	664553622, 937279800	51	1		1						
9	Kattaqo'rg'on shahar 11-ixtisoslashgan davlat umumiy o'rta ta'lim maktabi	203177469	U.Barnoev ko'chasi, 61-uy	664564315, 902289286	128	3	1	1			1			
10	Kattaqo'rg'on shahar 18-umumiy o'rta ta'lim maktabi	207169601	Turkiston ko'chasi, 39-uy	664564063, 902800990	59	1		1						
11	Kattaqo'rg'on shahar 5-umumiy o'rta ta'lim maktabi	300470974	A.Navoiy ko'chasi, 22-uy	664552761, 915591600	58	1		1						
12	Kattaqo'rg'on shahar 2-son bolalar musiqa va san'at maktabi	206984000	Ergash Miraliev ko'chasi, 28-uy	664554160, 915249096	100	3	1	1						1
13	Kattaqo'rg'on shahar 16-ixtisoslashtirilgan Davlat umumiy o'rta ta'lim maktabi	203183937	Shavqiy ko'chasi, 139-uy	664562138, 906010265	96	2	1	1						
14	2-ixtisoslashtirilgan Davlat umumiy o'rta ta'lim maktabi	203189896	O'zbekiston ko'chasi, 75-uy	664552971,909812629,915557993	109	3	1	2						
15	Kattaqo'rg'on shahar 14-ixtisoslashtirilgan Davlat umumiy o'rta ta'lim maktabi	200722314	Maxtumquli ko'chasi, 69-uy	664562405, 945383223	76	2	1	1						
16	Keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslar urush va mehnat faxriylari uchun "MARVARID" sanatoriyasi	300180125	Zomin ko'chasi, 11-uy	664553322	79	2		1			1			
17	Abdulxamid Majidiy nomli o'zbek davlat drama teatri	200722250	A.Navoiy ko'chasi, 106-uy	455-21-85	75	1	1							
18	Kattaqo'rg'on Abu Ali Ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi	200722378	Umar Xayyom ko'chasi, 221-uy	66-456-05-26. 66-456-05-32	119	3	1	1			1			
19	Kattaqo'rg'on shahar sanitarriya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi bo'limi	200722188	A.Navoiy ko'chasi, 201-uy	945530786	68	1		1						

20	Kattaqo'rg'on shahar 8-maktabgacha ta'lim tashkiloti	203860688	Zarifobod ko'chasi, 17-uy	664562206, 902800990	61	1		1						
21	Kattaqo'rg'on shahar 19-maktabgacha ta'lim tashkiloti	204830201	A.Temur ko'chasi, 26-uy	664552947, 906029444	56	1	1							
22	Kattaqo'rg'on shahar 17-maktabgacha ta'lim tashkiloti	204830218	A.Navoiy ko'chasi, 128-uy	664554049, 902813062	41	1		1						
23	Kattaqo'rg'on shahar 5-maktabgacha ta'lim tashkiloti	206314477	A.Temur ko'chasi, 21 a-uy	664560882, 901978913	64	2	1	1						
24	Kattaqo'rg'on shahar 20-umumiy o'rta ta'lim maktabi	300434685	Qozoqaul ko'chasi, 2-uy	942860020	77	1		1						
25	Kattaqo'rg'on shahar 17-ixtisoslashgan davlat umumiy o'rta ta'lim maktabi	300471087	A.Temur ko'chasi, 19-uy	664562983, 937233017	109	4	1	2	1					
26	Kattaqo'rg'on shahar 4-maktabgacha ta'lim tashkiloti	207031995	O'zbekiston ko'chasi, 77-uy	664552371, 973973222	37	1		1						
27	Kattaqo'rg'on shahar 15-maktabgacha ta'lim tashkiloti	207031988	Bo'ston ko'chasi, 3A-uy	664553908, 944726800	33	1	1							
28	Kattaqo'rg'on shahar "BARKAMOL AVLOD" bolalar maktabi	207124910	Munis Xorazmiy ko'chasi, 4-uy	664552771, 945350527	40	1		1						
29	Kattaqo'rg'on shahar 16-maktabgacha ta'lim tashkiloti	207031971	Shavqiy ko'chasi, 42-uy	664563279, 902810666	68	2	1	1						
30	Kattaqo'rg'on shahar 23-maktabgacha ta'lim tashkiloti	207052416	M.Xorazmiy ko'chasi, 1-uy	664552118, 979255232	43	1		1						
31	Kattaqo'rg'on shahar 10-son ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti	206928567	Do'st Ishbekov ko'chasi, 129-uy	664553822, 933550045	41	1	1							
32	Kattaqo'rg'on shahar 14-maktabgacha ta'lim tashkiloti	206964570	Ipak yo'li ko'chasi, 71-uy	664550468, 932211134	41	1		1						
33	Kattaqo'rg'on shahar kasb-hunarga o'qitish markazi	207313747	Ipak Yo'li ko'chasi, 25-uy	664560557	60	2	1	1						

34	Kattaqo'rg'on shahar 12-umumiy o'rta ta'lim maktabi	300471055	Kattaqo'rg'on mahallasi, Amir Timur ko'chasi, 1-uy	902287264	77	2	1	1						
35	Kattaqo'rg'on shahar 18-maktabgacha ta'lim tashkiloti	203384195	Turkiston ko'chasi, 39-uy	664564063, 933556626	36	1		1						
36	Kattaqo'rg'on shahar bolalar-o'smirlar sport maktabi	207105744	Shabboda ko'chasi, 1 A-uy	990296387	68	2	1	1						
37	Kattaqo'rg'on shahar tibbiyot birlashmasi	200722393	O'zbekiston ko'chasi, 149-uy	664552612, 902867554	1589	18	5	7	1	1	1	1		2
38	Mas'uliyati cheklangan jamiyati shaklidagi "DEHQON" dehqon bozori	200721197	Sh.Rashidov ko'chasi, 61-uy	915266020	50	2	1			1				
39	"MEXANIZATSIYALASHGAN KOLONNA - 12" mas'uliyati cheklangan jamiyati	200721047	A.Navoiy ko'chasi, 168-uy	945836446	95	2	1	1						
40	"KATTAQO'RG'ON YO'L QURISH-TA'MIRLASH" mas'uliyati cheklangan jamiyati	207282479	Buxoro ko'chasi, 68-uy	915229227	31	1				1				
41	"CLASSIC MOTOR" mas'uliyati cheklangan jamiyati	305136696	A.Navoiy ko'chasi 223-uy	903704850	34	1				1				
42	Mas'uliyati cheklangan jamiyati "METAL SOLUTION TECHNOLOGIES" qo'shma korxonasi	304048086	Qoradaryo ko'chasida	979150177	29	1				1				

Kattaqo'rg'on shahar hokimining
2022 yil 31 oktabrdagi
524-7-106-Q/22-son qaroriga
2-ilova

**2023-yilda Kattaqo'rg'on shahrida aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini
ishga joylashtirish uchun band qilib qo'yilgan ish o'rinlari to'g'risida
M A ' L U M O T**

№	Hudud nomi	Aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun ish o'rinlarini belgilash taklif etilayotgan korxon va tashkilotlar soni	Kelgusi yilga zahiraga qo'yish taklif etilayotgan ish o'rinlari soni	Shundan:							
				O'n to'rt yoshga to'lmagan bolalari, nogironligi bo'lgan bolalari bor yolg'iz otaga yoki onaga, shuningdek ko'p bolali oilalarning otalari	Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlari hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga ega bo'lgan yoshlar; "Mehribonlik" uylarining bitiruvchilari, shuningdek oliy ta'lim muassasalarining davlat grantlari bo'yicha ta'lim olgan bitiruvchilari	O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining, Ichki ishlar vazirligining, Favqulodda vaziyatlar vazirligining, Milliy gvardiyasining, Davlat xavfsizlik xizmatining qo'shinlaridagi muddatli harbiy xizmatdan bo'shatilgan shaxslar	Nogironligi bo'lgan shaxslar	Pensiyaoldi yoshidagi shaxslar	Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sud qaroriga ko'ra o'ziga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llanilgan shaxslar	Odam savdosidan jabrlanganlar	Qonunchilikka muvofiq boshqa shaxslar
A	B	I	2	3	4	5	6	7	8	9	10
1	Kattaqo'rg'on shahar	42	89	27	43	2	7	5	2		3